

SHARTNOMA № 10
Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha

2022 yil « 4 » noyabr

Farg'ona shahar.

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Farg'ona viloyati Ftiziatriya va Pulmanalogiya markazi** nomidan raxbar **Sh.Qo'chqorov** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va uz Nizomi asosida ish yurituvchi **Qurilish Optima MCHJ** (keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb ataladi) nomidan rahbar **D.Mirzaev** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani kuyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Ijrochi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: **Farg'ona viloyati Ftiziatriya va Pulmanalogiya markazi** binosi joriy tamirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda kabul kilib olib, to'lovlarni amalga oshiradi.

2. SHARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma buyicha «Ijrochi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari kiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni uz ichiga olgan xolda jami 990 000 000 (Tuqiz yuzi tuqson million) so'mni. Shundan KKS 15 % 129 130 434.47 tashkil etadi

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bulganda «Buyurtmachi» va «Ijrochi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari tuliq bajarilgandan so'ng, uzaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari kiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida tulovini «Ijrochi» xisob raqamiga utkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablag'larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bulgan ishlar 2022 yil 20 dekabr kuniga qadar tuliq yakunlanishi kerak.

4.2. «Ijrochi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidolari va me'yorlari talablariga muvofiq bulishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Ijrochi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Ijrochi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini tuliq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Ijrochi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan Shaki-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Ijrochi»ga xabar yuboriladi. «Ijrochi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar uz mablag'i va uz kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni tuliq qoplaydi.

6.2. Agar «Ijrochi» tomonidan bajarilishi lozim bulgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Ijrochi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.5% mikdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Ijrochi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan tulovlar uz muddatida amalga oshirilmasa tulanmagan summani 0.4% mikdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Ijrochi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi utkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Ijrochi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlar qisman yoki tuliq bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshqa yengib bo'lmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, uzgartirish va uni bekor qilishda paydo buladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. Uzaro kelishilmasa xujalik sudi va Uzbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnomani amal kilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik boshqarmasi (bulim)dan ruyxatdan utkazilganidan sung qonuniy kuchga kiradi.

9. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«Ijrochi»
«Qurilish Optima» MChJ

(mol yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Farg'ona shaxar S.Temur kuchasi 263 B-uy
Tel./faks: +998911660702
x/v 2020 8000 2053 2459 4001
Bank nomi Asia Alliance Bank ATB Farg'ona filiali
MFO 01173 STIR 308048660
OKONX _____

Raxbar


D. Mirzaev

M.U.

Xuquqshunos:

«Buyurtmachi»
Farg'ona viloyati Ftiziatriya va Pulmanalogiya
markazi

(Budjetdanmablagoluvchiningnomi)


Manzil: Fargonashaxar Kelajak kuchasi 7 uy
Tel./faks: +998905350099
sh/x 100021860304017073201054010

budjetdanmablag'oluvchi STIR 200151109
OKONX: 91511

G'aznachilik nomi Farg'ona viloyati buyicha
G'aznachilik boshqarmasi
G'azna x/v23402000300100001010
Bankningnomi: Markaziybank
XKKMToshkentMFO00014
G'aznachilikSTIRi 201 122 919

Buyurtmachiraxbari
(lavozimi)

M.U.


Y. Murodov